



ISSUES OF INTERESTS, RIGHTS AND FREEDOMS OF HUMAN (BASED ON THE WORK OF AL-HIDAYA)

Ganiyev Eldorbek Abduraxmonovich

Legal consul of the Law Bureau of the University of Digital Economics
and Agrotechnologies

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14575230>

ARTICLE INFO

Received: 24th December 2024

Accepted: 29th December 2024

Online: 30th December 2024

KEYWORDS

*Human rights, protection,
freedom, justice, responsibility.*

ABSTRACT

This article highlights issues related to human rights in the work "Al-Hidaya", studies issues of solving problems in this area, and highlights its specific aspects.

ВОПРОСЫ ИНТЕРЕСОВ, ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА (НА ОСНОВЕ РАБОТЫ АЛЬ-ХИДАЙИ)

Ганиев Эльдорбек Абдурахмонович

Юрисконсульт юридического бюро Университета цифровой
экономики и агротехнологий

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14575230>

ARTICLE INFO

Received: 24th December 2024

Accepted: 29th December 2024

Online: 30th December 2024

KEYWORDS

*Права человека, свобода,
справедливость,
ответственность.*

ABSTRACT

В данной статье освещены вопросы, связанные с правами человека в произведении «Аль-Хидая», изучены вопросы решения проблем в этой области, выделены ее специфические аспекты.

INSON MANFAATLARI, HUQUQ VA ERKINLIKLARI MASALALARI ("AL- HIDOYA" ASARI ASOSIDA)

Ganiyev Eldorbek Abduraxmonovich

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti yuridik byuro yuriskonsulti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14575230>

ARTICLE INFO

Received: 24th December 2024

Accepted: 29th December 2024

Online: 30th December 2024

KEYWORDS

*Inson huquqlari, himoya,
erkinlik, adolat, javobgarlik.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada "Al-Hidoya" asarida inson huquqlariga oid masalalarning yoritilishi, mazkur sohada muammolarning hal etish masalalari o'rganilib, uning o'ziga xos jihatlar yoritilgan.



Kirish. Burhoniddin Margʻinoniy zamonasida olimlar oʻrtasida qoʻldan-qoʻlga oʻtib yurgan ikki mashhur kitob bor edi. Birinchisi “Muxtasar Quduriy” asaridir. U Abu Hasan Ahmad ibn Muhammad Quduriy Bogʻdodiyning kitobi. Ikkinchisi “Al-Jomi as-Sagʻir” boʻlib, ushbu asar Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniyning kitobidir.

Burhoniddin Margʻinoniy mana shu ikki mashhur kitobning masalalarini muxtasar qilib jamladi. Hosil boʻlgan muxtasar kitobni “Bidoyat al-mubtadi” deb nomladi. Soʻngra “Bidoyat al-mubtadi” kitobini sakson jildlik sharh qildi. Uni (sharhni) “Kifoyat al-muntahi” deb nomladi. “Kifoyat al-muntahi” haddan tashqari uzayib ketganini koʻrib, kitobdan odamlar uzoqlashmasligi uchun “al-Hidoya” kitobini yozdi. “Al-Hidoya” kitobi “Bidoyat al-mubtadi” kitobining sharhi, “Kifoyat al-muntahi” kitobining muxtasari boʻldi¹. “Al-Hidoya” tushunarli va maʼnosi ochiq, turli masalalar va dalillarini oʻzida jamlovchi bir sharh asar hisoblanadi.

“Hidoya” Burhoniddin Margʻiloniy tomonidan tasnif qilingan mashhur asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar alloma Burhoniddin Margʻiloniyning «Bidoyatul mubtadi» asriga muxtasar sharhdir.

“Hidoya” asarini oʻz zamonasida mashhur qilgan Burhoniddin Margʻiloniyning shogirdlari – Shamsulaʼimma Muhammad ibn Abdusattor Kardariy va boshqa allomalar hisoblanadi².

Muhokama va natijalar. Asarda inson huquqlari va erkinliklari toʻgʻrisida bilimlar, jumladan, inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklari unga tugʻilganidan boshlab taalluqli ekanligi, yaʼni tabiiy huquqning eʼtirof etilishi, inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi, insonlarning kafolatlangan himoya bilan taʼminlanishi, huquqni qoʻllovchi shaxslarda inson xukuklari va erkinliklariga rioya qilish buyicha masʼullikni oshirish kabi masalalar yoritilgan.

Inson huquqlari va uning himoyasi har bir davrning dolzarb masalasi hisoblangan. “Al-Hidoya” asarida inson huquqlari va himoya qilish munosabatlari ahamiyatli masalalar sifatida yoritilgan.

Burhoniddin Margʻinoniyning “Al-Hidoya” asarini tadqiq etgan va nashrga tayyorlagan olimlar A.Saidov, A.Joʻzjoniy taʼkidlaganidek, “mana necha asrlardan beri Hanafiy faqihlari orasida Burhoniddin Margʻinoniyning bu asari katta shon-shuhratga ega boʻlib kelmoqda. “Hidoya” mumtoz tadqiqot sifatida har bir qozining birinchi yordamchisi, shariatning qiyin masalalarini va huquqiy masalalarni hal etishda rahbar qoʻllanma boʻlgan”. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, Margʻinoniyning “Hidoya” asari qator asrlar davomida musulmon mamlakatlarida muayyan darajada fiqh ilmining qomusi ham boʻlib xizmat qilgan³.

Margʻinoniyning “Al-Hidoya” asarida oʻsha davrda huquqiy jihatdan yechilmagan masalalarning yechimlari, qiyosiy huquq tahlillari, koʻplab mulkiy sohada yechilmagan masalalar, ayrim muayyan muammolar boʻyicha mulohazalar bayon etilgan va tahlillar yoritilgan.

¹ И.Кушшақов, <https://www.bukhari.uz/?p=7384>

² Хидоя шарҳ бидоятул мубтади. Бурҳониддин Марғилоний. -Т.: “Нил-Нашр”, 2022. – 896, 1-жild 12-б.

³Т.Курбонов, Бурҳониддин Марғилоний - ислом ҳуқуқшунослигининг улкан намоёнчаси. (<http://gulobodtongi.uz/jamiyat/burhoniddin-maroinoniy-islom-uushunosligining-ulkan-namoyandasi>)



“Al-Hidoya” asarida huquq normalari ishlab chiqilish jarayoni hamda bu normalarning jamiyat hayotiga olib kirilishi va uni amalga oshirish jihatlari, amaliyotda qo'llash va uning murakkablik jihatlari ko'rsatib o'tiladi.

Bilamizki, har bir qonunchilik normasi o'zining ijrosi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Qonunchilik normasining ijrosi taminlanmasa yoki talablari buzilsa, buning uchun javobgarlik masalasi mavjudligi muhim hisoblanadi.

Asarda insonning yashash huquqi, shuningdek, ozod, erkin bo'lish huquqi, oilali bo'lish huquqi, mulk huquqi kabi kator fundamental huquqlar to'g'risidagi g'oyalar va ushbu sohadagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalari hamda ularni amalga oshirishga oid masalalar yoritilgan.

Asarda huquq normalari va ularni himoya qilish yoki majburiy ravishda ijro etish mexanizimlari bayon etilgan. Chunki har qanday jamiyat va davlat faoliyatini qonunlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qonunlarning qat'iyiligi va ularning ijrosi hamda mas'uliyati jamiyatda adolat mezonini ta'minlash prinsiplaridan biri hisoblanadi. Asarda aynan ushbu masalalar atroflicha yoritilgan.

Asarda insonlarning shaxsiy huquq va erkinliklari borasida so'z borsa, albatta, yashash huquqi dastlab tilga olinadi. “Al-Hidoya” asarida ham inson hayoti va uning muhofazasiga doir bir nechta norma va huquqlar belgilangan.

Jumladan, manbaning “Jinoyatlar bo'limi”da qotillik, ya'ni inson joniga tajovuz qilishning 5 ta ko'rinishlari haqida so'z boradi⁴. Ular: qasddan, qasdga o'xshash, xato qilib (ehtiyotsizlik oqibatida), xatoning o'rnida va biror sabab bilan qilingan qotilliklardan iborat. Marg'inoniy ularning sabab va ko'rinishlarini birma-bir sharhlab beradi. Ularning eng og'ir oqibatlisi qasddan sababsiz bir jonga qasd qilish bo'lib, bu Qur'on va sunnat bilan harom qilingani va bunday qotillik sodir etishning oqibati jahannam bo'lishi ta'kidlanadi⁵.

Aytish joizki, Burhoniddin Marg'inoniyning “Al-Hidoya” asari o'zbek va musulmon huquqshunosligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asarlardan biridir. Bu asar, asosan, islom huquqi, shariat qonunlari va ularning amaliyotiga oid masalalarni yoritadi.

Asar turli huquqiy mavzularni qamrab oladi, jumladan, inson huquqlari, fuqarolik, jinoyat, oilaviy, mehnat huquqi kabi sohalarga oid masalalar ko'rib chiqiladi. Inson qadr qiymati, ta'lim olish, fikr va so'z erkinligi, e'tiqod erkinligi, mulk muhofazasini ta'minlash choralari ushbu asarda turli uslublarda bayon etiladi.

Burhoniddin Marg'inoniy ushbu asarida muammolarni tahlil qilishning o'ziga hos uslubi (fiqhiy dallilash) ochib ko'rsatish, huquqiy muammolarni yechish va yechimlarini taklif etish uslublari orqali o'rganish jarayonini rivojlantiradi.

Asarda huquqiy masalalar jamlanadi, shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoitlar hamda madaniyatning rivoji uchun xizmat qiladigan ma'lumotlar va boshqaruv sohadagi masalalar bayon etiladi.

Alloma fiqhiy masalalarni yoritishda qiyosiy uslubdan foydalanadi, nazariyalarni bir-biri bilan solishtiradi. Avval, Qur'on, so'ngra Sunnaga asoslanadi, undan keyin ijmo' va qiyosga

⁴ Бурхониддин Марғиноний. Ал-Ҳидоя шарҳи бидоя ал-мубтадий. - Макка: Мустафо Аҳмад ал-Боз, 1994. Ж. 3-4. – Б. 493.

⁵ Б.Ботиров. Бурхониддин Марғинонийнинг “Ал-Ҳидоя” асарида шахсий ҳуқуқ ва эркинликларнинг мазмуни (Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor VOLUME 2, ISSUE 9 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor = 1.7)



o'tadi. Qiyos muammoni hal etishda yordam bermasa, istehsonga (qiyosi hafiya) o'tadi. Yechimi topilmagan ahvolda urfu odatga tayanib, xulosa chiqaradi⁶.

Yuridik fanlari doktori, professor N.Yusupova "Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari muhim fihiy manba sifatida" nomli tadqiqotlarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Bugungi O'zbekiston davlati va huquqining poydevori – milliy davlatchilik asoslari juda qadim va mustahkam bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega. Mintaqamizning boy madaniyati asrlar davomida ajdodlarimizning ijodi bilan takomillashdi, boyidi va taraqqiyotning yuksak pog'onalariga ko'tarilib, butun bashariyat uchun bebaho meros bo'lib qoldi⁷.

Abu Farros al-G'assoniy "Hidoya" muallifining tarjimai holi haqida yozilgan "Favoidul bahiya" asarida Burhoniddin Marg'inoniy qozixon darajalaridan past bo'lmaganini ta'kidlab: "Dalillarni topish va masalalarni yechishda katta qobiliyat egasi bo'lmish bu kishi, mazhabdagi mujtahidlikka haqliroqdir", deya Burhoniddin Marg'inoniy mujtahidlaridan sanashlikni sog'lom aql egasining ishi deydilar⁸.

Taniqli olim Abdulhakim Shar'iy Juzjoniyni ta'kidlashicha, Afg'oniston va Hind yarim orolida "Kanz ud-daqiq" va "Muxtasar ul-Quduriy" kitoblaridan keyin, "Kitob al-Hidoya" asarini yetuk ustozdan o'qib tamomlamagan tolib haqiqiy fiqh olimi hisoblanmagan⁹.

"Hidoya" asari yaratilgan davridan boshlab, bir qator faqihlar, olimlar, tarixchilar, shohu hokimlar diqqatini tortib keladi. "Hidoya" hanafiy mazhabi ta'limoti, Sharq huquqiy madaniyatini va fiqh ilmi tarixini o'rganishda eng ishonchli manba sanaladi. Burhoniddin Marg'inoniyning merosi, xususan, "Hidoya" asari sharqshunos olimlardan Sh.Riyo, Brokelman, Flyuger, Rozen, Krachkovskiy, Semyonov va boshqalar diqqatini tortib, ularning jiddiy xulosalariga sabab bo'lgan¹⁰.

"Hidoya" asari Yevropaning eng qadimgi universitetlaridan Fransiyaning Sarbon, Angliyaning Oksford universiteti, AQShning Zaytuna oliygohi va musulmon olamining eng qadimiy va nufuzli universitetlaridan al-Azhar, Afg'oniston Islom universiteti, Hindiston Aligarh muslim universiteti, Devband dorul-ulumi, Pokiston Karachi Xalqaro islom universiteti va boshqa musulmon mamlakatlari oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu mashhur kitob qonun tuzish tizimini rivojlantirish uchun asosiy manbalar sifatida qo'llanib kelinmoqda¹¹.

"Al-Hidoya asarida Marg'inoniy oila, ta'lim olish va tarbiya sohalariga ham alohida to'xtalib o'tadi.

Marg'inoniy ilmga kirishgan talabalarga qattiq sa'y-harakat qilishni, sustkashlik va dangasalikni o'ziga yot bilish lozimligini uqtiradi va ularga hayotidan misol qilib: "Ilmda sheriklarim ustidan g'alaba qilishimning sababi shuki, sustlik va dangasalik hech qachon menga yo'l topmadi" deydi. Bu borada Bahovuddin Naqshbandiy ta'kidlagan ushbu jumla ham o'rinlidir: "Biz bu yo'lning talabiga qadam qo'yganimizda ikki yuz kishi edik. Mening himmatim

⁶ G. Muhammadiyeva, Burhoniddin Marg'inoniyning "Al-Hidoya" asari muhim fihiy manba. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» (№ 7 (100), февраль, 2023 г часть 1)

⁷ G. Muhammadiyeva, Burhoniddin Marg'inoniyning "Al-Hidoya" asari muhim fihiy manba. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» (№ 7 (100), февраль, 2023 г часть 1)

⁸ Mahmud Sulaymon al-Kafaviy "Katoib al-a'lam al-axir fi tabaqot al-fuqaho ma mashayix mazhab an-No'mon" O'zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasini, inv. Raqam 29.29.

⁹ A.Mallabayev, <https://iaau.uz/oz/news/1042>

¹⁰ A.Сатторов, Бурхониддин Марғиноний - ислом цивилизациясининг етук намояндаси. (<https://termiziy.uz/uz/news/1439F>)

¹¹ И.Бекмирзаев "Хидоя" асарининг юзага келиши ва унинг турли тиллардаги таржималари (<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p4-168>)



bularning hammasidan o'tish edi. Ilohiy inoyatga noil bo'lib, bu jamoatning hammasidan o'tib ketdim va asl maqsadga yetdim. Har qanday inson bir maqsad sari astoydil harakat qilsa, albatta o'z murodiga yetishi mumkin. Burhoniddin Marg'inoniy avlodlari ham otalaridan ilm o'rganib, yetuk olim darajasiga yetganlar¹².

Xulosa. Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish va mustahkamlashda ushbu asardagi qoidalar va standartlarni o'rganish ahamiyatli hisoblanadi.

Asarni o'rganish inson huquqlariga oid g'oyalarning tub mohiyatini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi, asar bilan tanishish asosida shuni ta'kidlash mumkinki, inson huquqlari konsepsiyasi u yoki bu shaklda islom huquqi tizimi asosida idrok etiladi. Inson huquqlariga oid mavzular shunchalik ochiq, tushunarli va qat'iyat asosida bayon etiladiki, ortiqcha sharhga hojat qolmagan.

Biz mazkur tadqiqot natijasida inson huquqi va erkinligiga oid zamonaviy konsepsiyalar aynan shunday asrlarda bayon etilgan manbalar asosida taraqqiyot bosqichlari orqali rivojlanib kelganini tushunamiz.

"Al-Hidoya" hozirgi davr huquqshunoslariga, umuman o'tmish tariximizga qiziquvchi barcha o'quvchi va tadqiqotchilarga ma'naviy va ma'rifiy, huquqiy va ijtimoiy jihatdan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga ko'maklashuvchi manbalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan ta'kidlash lozimki, asarda inson huquqlari va erkinliklari, inson qadr-qimmati e'zozlanadi, o'z huquqlarini qanday himoya qilishni bilish va qayerda himoya qilish vositasi dalillar bilan bayon etiladi.

Asarda umuman har bir insonning talab va nizomlarni bekamu ko'st bajarishi bilan birga ularning majburiyatlari ham ifodalangan va tartiblarga rioya etish muqaddas burch hisoblangan.

Asarning huquqiy qiymati shundaki, uning muallifi o'z fikrlarini va qarorlarini turli dalillar vositasida isbotlab, mustahkamlab boradi. Qarashlari o'quvchiga tez va tushunarli yetishi uchun turli manbalarni, dalillarni keltiradi.

Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari inson huquqlarining himoyasini ta'minlashda, ushbu jarayonlarni o'rganishda muhim asarlardan biri hisoblanadi.

References:

1. Ўзбекистон Президенти БМТ Бош Ассамблеясининг 78-сессиясида нутқи. 20.09.2023
2. Одил Қориев. "Бурҳонуддин ал-Марғиноний - ҳуқуқшунос" / «Шарқшунослик» тўплами. Т., 1993 й.
3. Хидоя. Комментарий мусулманского права. Отв. ред. и авт. вступ. стати и комментарий А.Саидов. Ташкент: Ўзбекистон, 1994.
4. Мўминов А. Мовароуннаҳр уламолари: ҳанафийлар // Шарқшунослик. №9 /1999.
5. Тошқулов. Ж., Юсупова Н., Бекмирзаев И., Сарсенбоев О., Масаидов С. Ислом ҳуқуқшунослиги. Ўқув қўлланма. – Т.; Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2014.

¹² Наврўзова Г. Ал-Марғиноний ва Баҳовуддин Нақшбанд таълимоти. // Хидоят. 2000. № 11-12.

А.Сатторов, Бурҳониддин Марғиноний - ислом цивилизациясининг етук намоянчаси. (<https://termiziy.uz/uz/news/1439F>)



6. О'збекистон Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида №.Р.9445 рақам остида сақланаётган «Викоят арривоя» қўлёзма нусхаси. Б.1.
7. Юсупова Н.Ж., Жузжоний А.Ш. Бурҳониддин Марғ'иноний: Ҳаёти ва илмий мероси. – Т.: Академия, 2007.
8. Наврўзова Г. Ал-Марғиноний ва Баҳовуддин Нақшбанд таълимоти. // Ҳидоят. 2000.
9. Маҳмуд Ҳасаний. Ал-Марғинонийнинг «Ҳидоя» асари ва унга ёзилган шарҳлар. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000.
10. И.Бекмирзаев “Ҳидоя” асарининг юзага келиши ва унинг турли тиллардаги таржималари ([хтtps://www.doi.org/10.37547/ежар-в03-и02-п4-168](https://www.doi.org/10.37547/ежар-в03-и02-п4-168))
11. Т.Қурбонов, Бурҳониддин Марғиноний - ислом ҳуқуқшунослигининг улкан намояндаси. ([хтtp://гулободтонги.уз/жамият/бурониддин-мароиноний-ислом-уушунослигининг-улкан-намояндаси](http://гулободтонги.уз/жамият/бурониддин-мароиноний-ислом-уушунослигининг-улкан-намояндаси))